



**TOSHKENT SHAHRIDA TEZ TIBBIY YORDAM XIZMATI (1963–1965 YY.):
TIZIMLI MUAMMOLAR VA ULARNING OMILLARI.**

Yergasheva Muxlisa Soattullayevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi.



Annotatsiya. *Ushbu maqolada 1963–1965 yillarda Toshkent shahrida tez tibbiy yordam xizmati tizimining tashkiliy asoslari, uning amaliy faoliyati va rivojlanish dinamikasi kompleks tahlil qilingan.*

Kalit soʻzlar: *tez tibbiy yordam, gospitalizatsiya, stasionar xizmat, tibbiy infratuza, epidemiologik holat, favqulodda vaziyat.*

Аннотация. *В данной статье представлен комплексный анализ организационных основ системы скорой медицинской помощи в городе Ташкенте в 1963–1965 годах, её практической деятельности и динамики развития.*

Ключевые слова: *скорая медицинская помощь, госпитализация, стационарная помощь, медицинская инфраструктура, эпидемиологическая ситуация, чрезвычайные ситуации.*

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of the organizational foundations of the emergency medical service system in Tashkent during 1963–1965, including its practical activities and development dynamics.*

Keywords: *emergency medical care, hospitalization, inpatient care, medical infrastructure, epidemiological situation, emergency situations.*

XX asrning 1960-yillarning oʻrtasida Toshkent shahrida sogʻliqni saqlash tizimi jadal urbanizatsiya va aholi sonining oʻsishi sharoitida faol rivojlandi. Ayniqsa, tez tibbiy yordam xizmati aholi salomatligini taʼminlashda muhim institusional mexanizm sifatida shakllanib bordi.

Biroq, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, ushbu davrda shoshilinch tibbiy yordam tizimida bir qator tizimli muammolar saqlanib qolgan. Jumladan, gospitalizatsiya jarayonlarining yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi, stasionar fondning cheklanganligi va malakali kadrlar tanqisligi kabi omillar xizmat samaradorligiga salbiy taʼsir koʻrsatgan [1].

Maqolada tarixiy-tahliliy yondashuv qoʻllanilib, Toshkent shahar sogʻliqni saqlash boshqarmasi hisobotlari, tez tibbiy yordam stansiyasi materiallari va davriy tibbiy adabiyotlar oʻrganildi. Tahlil jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: statistik maʼlumotlarni



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



taqqoslash; gospitalizatsiya ko'rsatkichlarini dinamik tahlil qilish; tashkiliy tuzilmalar samaradorligini baholash. Shuningdek, Moskva va Leningrad shaharlaridagi ilg'or tajribalar bilan qiyosiy tahlil amalga oshirildi, bu esa Toshkent tizimining o'ziga xos jihatlari aniqlash imkonini berdi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 1963-1965-yillarda Toshkent shahrida tez tibbiy yordam xizmati bosqichma-bosqich institusionallashtirildi. Jumladan, gospitalizatsiya jarayonlarini markazlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilib, maxsus gospitalizatsiya bo'limlari tashkil etilgan.

Shu bilan birga, tizimda qator jiddiy cheklovlar mavjud bo'lgan. Eng avvalo, stasionar koya fondida aholi ehtiyojlariga nisbatan ancha past darajada bo'lgan. Me'yori bo'yicha har 1000 aholiga 11,2 ta koya talab etilgan bo'lsa, amalda bu ko'rsatkich 8,5–8,8 atrofida bo'lgan. Bu holat stasionar muassasalarda ortiqcha yuklama yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

1966-yilgi zilzila esa mazkur muammolarni yanada keskinlashtirdi. Tabiiy ofat natijasida tibbiy infratuzilmaning salmoqli qismi izdan chiqdi va tizim favqulodda sharoitda faoliyat yuritishga majbur bo'ldi. Shu munosabat bilan, vaqtinchalik stasionarlar tashkil etish, muassasalarni qayta joylashtirish va resurslarni qayta taqsimlash kabi choralar amalga oshirildi [2].

Shuningdek, tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, epidemiologik vaziyatning yomonlashuvi, ayniqsa, o'tkir ichak kasalliklarining ko'payishi gospitalizatsiya darajasining keskin oshishiga olib kelgan. Bu esa, o'z navbatida, tez tibbiy yordam xizmati zimmasiga tushgan yuklamani yanada oshirgan [3].

Kadrlar masalasi ham dolzarb muammolardan biri bo'lib qolgan. Ayrim holatlarda malakali mutaxassislarning yetishmasligi tashxis qo'yishda xatolarga va bemorlarni asossiz ravishda gospitalizatsiya qilish holatlariga sabab bo'lgan [4].

Xulosa.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 1963-1965 yillarda Toshkent shahrida tez tibbiy yordam xizmati shakllanish va rivojlanish bosqichida bo'lgan murakkab tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tizim muayyan institusional asoslarga ega bo'lgan bo'lsada, uning samaradorligi qator omillar bilan cheklangan.

Jumladan: stasionar resurslarining yetishmasligi, kadrlar salohiyatining pastligi, tashkiliy muvofiqlashtirishning yetarli emasligi, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik darajasining pastligi. Shu nuqtai nazardan, mazkur davr tajribasi zamonaviy tez tibbiy yordam tizimini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ayniqsa, resurslarni samarali boshqarish va inqiroz holatlariga tayyorgarlikni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Махмудова Н.М. Очерки истории внутренней медицины в Узбекистане. – Тошкент, 1969 Скорая неотложная медицинская помощь. – Тошкент: “Медицина”, 1966.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



2. Бурд Г.С. Скорая медицинская помощь при сосудистых кризах // Врачебное дело, 1964.
3. Памятка по диагностике и оказанию неотложной помощи. – Москва, 1966.
4. Скорая неотложная медицинская помощь. – Тошкент: “Медицина”, 1966.